



Jizzax davlat
Pedagogika
universiteti
TARIX FAKULTETI



TARIX JAM'YAT

JOURNAL 2023

No 5



HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

**2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o‘qitish metodikasi**

Bosh muharrir: **Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,
t.f.n., dotsent.**

Bosh muharrir **Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.**
o‘rinbosari:

Mas’ul kotib: **Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o‘qituvchisi**

TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G‘ofurov J.I – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi

Dizayner va sahifalovchi:

Axmurodov D.Q

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING MEXANIZMLARI

Vaxobov Ulug‘bek Bahodir o‘g‘li,
JDPI Tarix fakulteti “Falsafa, tarbiya va huquq
ta’limi” kafedrasи o‘qituvchisi
Eshqulov Quvonchbek Sherali o‘g‘li
JDPI Tarix fakulteti “Milliy g’oya, ma’naviyat
asoslari va huquq ta’limi” yo’nalishi
1 bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqiy mexanizmi, ularni qollab-quvatlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar, Jamoatchilik palatasi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so‘z: Nodavlat notijorat tashkilot, islohot, fuqarolik jamiyati, jamoatchilik palatasi, jamoatchilik eshittiruvi, barqaror rivojanish asoslari.

Annotation: The article discusses the legal mechanism of non-governmental non-profit organizations, the measures taken to support them, the Public Chamber.

Keywords: NGO, reform, civil society, public chamber, public broadcasting, Fundamentals of Sustainable Development.

Аннотация: В статье говорится о правовом механизме деятельности негосударственных некоммерческих организаций, принимаемых мерах по их поддержке и Общественной палате.

Ключевые слова: Негосударственная некоммерческая организация, реформа, гражданское общество, общественная палата, общественное вещание, основы устойчивого развития.

O’zbekiston bugungi kunda mustaqil davlat sifatida o’z istiqlol va taraqqiyot yo‘lidan olg‘a bormoqda. Davlatimizning bosh strategik maqsadi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish hisoblanadi. O’zbekistonda qurilayotgan Fuqarolik jamiyatining o’ziga xos hususiyatlari mavjud bo’lib, ular quyidagilarni tashkil etadi – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatimizni modernizatsiya qilishda parlamentning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi va davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, davlatning iqtisodiyotni tartibga solish borasidagi funktsiyalarini qisqartirish, “yagona oyna” tamoyili bo'yicha davlat xizmatlarini ko’rsatish tizimini keng joriy etish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish va fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish yo’lida davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish va boshqalar.

Ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, yangi mano-mazmun bilan boyitish, uning izchilligi va samarasini taminlash—mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning mazkur bosqichida oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Bu borada quyidagi muhim masalalarga alohida etibor berishimiz zarur:

Birinchidan, Mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish.

Bu jarayonda, avvalo, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini kuchaytirish va insonning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarishi uchun tegishli shart-sharoit yaratish lozimdir.

Bunda odamlarning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etish, o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini rivojlantirishva amalda namoyon etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, nodavlat tuzilmalar va hukumatga qarashli bo'limgan jamoat tashkilotlarining hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada mustaxkamlash va rivojlantirish.

Shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, nodavlat va jamoat tashkilotlarining rivojlanish tizimi jamiyatda manfaatlar uyg'unligini qaror toptirish va mustaxkamlashga xizmat qilishi lozim. Bu tizim davlat tuzilmalari faoliyatini muayyan ma'noda to'ldirishi, ya'ni ularga nisbatan ma'lum bir muvozanatni ta'minlovchi vosita vazifasini bajarishi kerak.

Odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va siyosiy faolligi yuksalib brogan sari, davlat o'z vazifalarini nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib berishi zarur.[1]

Nodavlat notijorat tashkilotlari respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarni o'z a'zolari ishtirokida tahlil qilishlari va ularga nisbatan o'z fikrlarini bildirishlari, islohotlar natijasida o'z oldilarida turgan vazifalarni aniqlab olishlari va jamiyatning barcha a'zolarini ularni bajarishga jalb etishlari lozim.

Ta'kidlash kerakki, oxirgi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash, davlat organlari va ular o'rtaida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida izchil ishlar olib borilmoqda.

Sonlar bilan ko'rsatadigan bo'lsak, oxirgi to'rt-besh yilda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlarining 1 270 dan ortiq loyihibalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Davlat byudjetidan 117 milliard so'm miqdordagi mablag'lar ajratildi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy kafolatlarini ta'minlaydigan, zamonaviy demokratik talablarga va xalqaro standartlarga javob beradigan normativ-huquqiy baza yanada takomillashtirildi. Buning natijasida 20 ga yaqin qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va Hukumatning qarorlari qabul qilindi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari manfaatlarini ifoda etish, davlat bilan ular o'rtaсидаги ко'прик vazifasini bajarishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi tashkil qilindi, shuningdek, aholi bilan ochiq muloqot olib borishning yangi samarali vositalarini joriy etish maqsadida davlat organlari huzurida Jamoatchilik kengashlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish, inson huquqlarini, qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilish, aholining siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishga munosib hissa qo'shgan nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini rag'batlantirish maqsadida "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" ko'krak nishoni ta'sis etildi hamda sohaning 126 nafar faollari ushbu yuksak mukofot bilan taqdirlandi. [2]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasiga to'xtaladigan bo'lsak, uning asosiy faoliyati quyidagilar etib belgilangan:

davlat, fuqarolar va fuqarolik jamiyatini institutlarining mamlakatni yanada jadal va har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini birlashtiruvchi zamonaviy shakldagi tizimli hamda samarali muloqotini yo'lga qo'yish hamda ularning ijtimoiy manfaatlari kelishilishini ta'minlash;

fuqarolarning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtirokini faollashtirishga hamda davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga ko'maklashish;

aholi fikrini tizimli o'r ganib borish, joylarda va sohalarda aholini, fuqarolik jamiyatini institutlarini hamda jamoatchilikni tashvishlantirayotgan dolzarb masalalarni muhokama qilish, shuningdek, ularning yechimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlisi palatalariga va Hukumatga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha takliflar kiritib borish;

ilmiy-ekspert guruhlari ishtirokida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borish yuzasidan tashabbus ko'rsatish, bu boradagi davlat siyosati va uning amaliy natijalari haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli o'r ganish, umumlashtirish va tahlil qilishni tashkil etish;

fuqarolik jamiyatini institutlarining davlat organlari bilan hamkorligi darajasi, ularning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qo'shayotgan hissasini baholovchi ko'rsatkichlarni ishlab chiqish hamda ular asosida fuqarolik

jamiyatining holati va rivojlanish tendentsiyalari to'g'risida yillik milliy ma'ruzalarini tayyorlash;

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda fuqarolik jamiyati institutlarining amaliy va samarali hamkorligini yo'lga qo'yishga ko'maklashish hamda mazkur masala bo'yicha jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish;

davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini kuchaytirish, ularga uslubiy va boshqa amaliy yordam ko'rsatish;

norma ijodkorligi sifatini tubdan yaxshilashga ko'maklashish, jumladan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid va jamoatchilikda alohida qiziqish uyg'otadigan o'ta dolzarb masalalarga doir normativ-huquqiy hujjat loyihamalarini jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazish, ularni jamoatchilik bilan maslahatlashuv va eshituvlari asosida takomillashtirishga ko'maklashish;

fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari va blogerlarni so'z erkinligi, fuqarolarning axborot olish va tarqatish huquqini amalga oshirish, axborot erkinligi kafolatlarini ta'minlash bo'yicha muhokamalarga jalb etish hamda mazkur masalalarga oid amaliy takliflar ishlab chiqish;

jamoatchilik nazoratining samarali tizimini shakllantirish, «jamoatchilik eshituvi», «jamoatchilik ekspertizasi», «jamoatchilik monitoringi» kabi ta'sirchan zamonaviy nazorat shakllarini amalda joriy etish;

islohotlar va davlat dasturlarining joylarda va sohalarda amalga oshirilishi ustidan jamoatchilik monitoringini tashkillashtirish, ularni sifatli bajarish uchun qo'shimcha choralar ko'rish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, erishilgan ko'rsatkichlar, ijobiy o'zgarishlar va mavjud muammollar to'g'risidagi axborotni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlisi palatalari va Hukumatga muntazam kiritib borish;

«xalq diplomatiyasi» institutini rivojlantirish, jumladan mamlakat tashqi siyosatining ustuvor vazifalarini hayotga tatbiq etish, uning nufuzli xalqaro reytinglarda egallagan o'rnini yaxshilashda fuqarolik jamiyati institutlarining imkoniyatlaridan keng foydalanish hamda xorijdagi vatandoshlar bilan yaqindan aloqalar o'rnatish, nodavlat notijorat tashkilotlariga xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda yordam ko'rsatish.[3]

2021 yil 4 martda qabul qilingan 2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida farmonida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shakllarida qo'llab-quvvatlash hajmini

2021 yilda kamida 1,2 baravarga, 2025 yilda 1,8 baravarga oshirish belgilab qo'yigan.

Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining ochiqlik indeksi joriy qilinadigan va unga ko'ra har yil yakunlari bo'yicha nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar, ijtimoiy sheriklik darajasi, ajratilgan subsidiya, grant va ijtimoiy buyurtmalar natijadorligi va boshqa muhim faoliyat ko'rsatkichlariga asosan ularning reytingi tuziladigan bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. –T.:O'zbekiston, 2005.–B. 181-182.
2. 2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida farmoni. 2021 yil 4 mart.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik Palatasini tashkil etish to'g'risida farmoni. 2020 yil 16 aprel.